



UDK 81'331'3

Mehrinigor AHMEDOVA,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d
E-mail: m.b.axmedova@buxdu.uz
Muhayyo TO'RAQULOVA,
Buxoro davlat universiteti magistranti
E-mail: muhayyoturaqulova0@gmail.com

F.f.d., DSc, D.Xodjayeva taqrizi asosida

LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE FEMALE CHARACTER IN NAZAR ESHONQUL'S STORY 'ENDLESS SKY'

Annotation

Language and culture are concepts that are intimately connected, and this connection is especially reflected in literary works. Nazar Eshonqul is one of the versatile and talented representatives of modern Uzbek literature, depicting the characteristics specific to our nation skillfully in his works. In this article, the female characters of the story "Endless Sky," authored by him, are analyzed using the sociological method, and their linguistic and cultural aspects are studied.

Keywords: linguocultural, language, Uzbek, woman, society, metaphor, social consciousness.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В РАССКАЗЕ НАЗАР ЭШОНКУЛ «БЕСКОНЕЧНОЕ НЕБО».

Аннотация

Язык и культура - это концепции, которые тесно связаны между собой, и эта связь особенно проявляется в литературных произведениях. Назар Эшонкул является одним из разносторонних и талантливых представителей современной узбекской литературы, мастерски изображая в своих произведениях характерные особенности нашего народа. В этой статье женские персонажи рассказа «Бесконечное небо» анализируются с использованием социологического метода, а также изучаются их лингвистические и культурные аспекты.

Ключевые слова: лингвокультурный, язык, узбекский, женщина, общество, метафора, общественное сознание.

NAZAR ESHONQULNING "BEPLOYON OSMON" HIKOYASIDAGI AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir va bu aloqa, ayniqsa, adabiy asarlarda yaqqol o'z aksini topadi. Nazar Eshonqul zamonaviy o'zbek adabiyotining serqirra va iste'dodli namoyondalaridan biri bo'lib, o'z asarlarida xalqimizga xos xususiyatlarni mahorat ila tasvirlaydi. Mazkur maqolada ijodkor qalamiga mansub "Bepoyon osmon" hikoyasidagi ayol obrazlari sotsiologik metoddan foydalanib tahlil etildi va ularning lingvomadaniy jihatlari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy, til, o'zbek, ayol, jamiyat, metafora, ijtimoiy ong.

Kirish. O'tgan asrning 80-90-yillari nasrimizda sezilarli ta'sirga ega bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur davrda yurtimizda G'arb adabiyotining serqirra va iste'dodli namoyondalaridan biri bo'lib, o'z asarlarida xalqimizga xos xususiyatlarni mahorat ila tasvirlaydi. Mazkur maqolada ijodkor qalamiga mansub "Bepoyon osmon" hikoyasidagi ayol obrazlari sotsiologik metoddan foydalanib tahlil etildi va ularning lingvomadaniy jihatlari o'rganib chiqiladi.

U o'z asarlarida qahramonlarining ichki kechinmalarini, ruhiyani alohida mahorat bilan ifoda etadi, uning asarlarida insonlarning xatti-harakatlari va his-tuyg'ulari millatimizga xos sifatlar bilan yo'g'rilgan holda samimiy, sodda va tushunarli tarzda yoritiladi. O'zi xos odmilik lekin mahorat bilan tanlagan so'zlar hikoya o'quvchilarini o'ziga sehrlab qo'yadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos Sanobar To'laganova "XXI asr romanini Nazar Eshonqul yozsa kerak" deb nomlangan maqolasida, adib shaxsiyati va uning yozuv usuli haqida so'z yuritib uni quyidagicha tasvirlaydi: "G'arb adabiyotiga ixlos qo'ygan modernist, hayotiy voqelikni boricha tasvirlovchi realist, mahoratli esseist, dunyo

madaniyatining ulkan bilimdoni, xalq og'zaki ijodini yaxshi biluvchi ziyoli, kino madaniyatidan yaxshigina xabardor mutaxassis"[1]. Mazkur xususiyatlarning barchasi birgina uning shaxsida jamlangan bo'lib, buni Nazar Eshonqulning asarlarini mutolaa qilgan har bir o'quvchi ma'qullaydi.

Adib asarlarida zamonaviylik ufurib tursa-da, unda o'ziga xos milliylik ruhi ham bor, va bu yozuvchi nasriga o'zgacha estetik qiymat beradi. Serqirra ijodkor badiiy vositalar va ohorli so'zlardan shu qadar mahorat bilan foydalanadiki, uning asarlarida ortiqch bachkanalik yoki bo'rttirish sezilmaydi, balki badiiy zavq beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Bepoyon Osmon" hikoyasidagi qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari millatimizga xos jihatlarni namoyon etib, til va madaniyat orasidagi rishtani aks ettiradi. Nazar Eshonqul zamonaviylikni ma'qulaydi, ammo milliylikni ham unutilib qo'ymaydi. Uning qahramonlarida umumbashariy sifatlar ham bo'lsa-da, o'zbekona ruh ustunlik qiladi. Maqolda adabiy asarlar tahlilining sotsiologik metodidan foylanildi, chunki badiiy adabiyot ijtimoiy ongning o'ziga xos shaklidir [2]. Ko'plab asarlarda markaziy mavzu insonlarning ijtimoiy hayotiga

haqida bo'lib, "Bepoyon Osmon" hikoyasi ham bundan mustasno emas.

O'zbek millatining tarixiy ildizlari uzoq yillik bo'lib, turli udum va an'analarimiz hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, bu jihat ayollar misolida ko'rinadi. "Bepoyon Osmon" hikoyasida ham ayni madaniyat ayol obrazlarining nutqida, turmush tarzida, bir-biri va jamiyat bilan bo'lgan aloqasida namoyon bo'ladi. Oddiygina tengdosh ayollarni tasvirlashda "jamalakdosh tengdoshlar..." iborasining qo'llanilishining o'ziyoq, qizlarimizning soch o'rib yurish odatiga ishora qilgan.

Asosiy voqealar Tersota qishlog'ida bo'lib o'tib, muallifning o'zi ham aynan shu yerda tavallud topgan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, adib voqealar tasvirida o'z hayotiy tajribasidan ham ilhomlangan:

"...yangam Tersotaning eskicha an'analariga, eskicha munosabatlarga hali ham sodiq qolgan obro'li xonadonidan edi."

Ushbu parchadan ko'rinib turganidek, qishloqda hali ham udumlarga katta ahamiyat berishadi, bu bevosita ijtimoiy hayot tarzini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, xalqimizda bolalarga nisbatan o'zgacha mehr bor, buni chaqaloq tug'ilishi bilan boshlanib ketadigan turli an'analarimiz misolida ko'rish mumkin. Ammo ayni hikoyada uzoq kutilgan chaqaloq tug'ilmayotgani uchun turli nizolar kelib chiqadi. Asosiy voqealar shu muammo atrofida yuz beradi.

"Ammo butun hovlining supur-sidiridan tortib, mollarga beriladigan yem-xashakkacha Oyto'ldi enamning zimmasida edi. U o'ziga ishonib topshirilgan xonadonni tirnoqqa zor qilayotgani uchun ham shunga mahkumday edi".

Mazkur parchada Oyto'ldining vaziyati aks etgan bo'lib, "tirnoqqa" metonimiyasi qo'llanilib uning hazin holati yorqinroq ko'rsatib berilgan. Oyto'ldi timsolida millarimizga xos mo'min-qobillik, ishonuvchalik, va sabr sifatleri tasvirlangan. Asar davomida u deyarli so'zlamaydi, har qanday vaziyatda ham chidashni tanlaydi, bosimlarga bardosh beradi. U o'zbek ayollariga xos sabrning siyomosidek yangraydi, zero erining aybini bilsa-da bu haqida churq etmaydi. Ojiza, biroq bardoshli ayol.

Keying asosiy personaj bu – amma. U Oyto'ldini doimiy tarzda har yerda, har qanday holatda ta'qib etadi, uning nutqida uzun va murakkab sintaktik tuzilmalar, kinoya va kesatliqlar mohirona ishlatilgan va uning xarakterini ochib berishda ko'maklashgan.

"...butun qishloqda o'zining tutgan yeridan kesishi, zaharli tili-yu, kim bo'lishdan qat'iy nazar, odamning betiga tik qarab, shartta gapirishi, odamlarni yuzing-ko'zing deb o'tirmasligi bilan nom qozongan ammam edi".

Amma cho'rtkesar, erkakshoda ayol timsoli. Uning burro va dag'al tilidan Oyto'ldiga qarata dilozor gaplar doimiy yog'iladi. Ko'p millatlarga xos bo'lganidek, bizning xalqimizda ham erkaklarga nisbatan o'zgacha hurmat, e'zoz bor. Shundan kelib chiqib, vaziyatni ortiqcha surushtirmasdan oq malomat toshlari faqat Oyto'ldiga otilladi:

"...lekin hamma ayb Oyto'ldining o'zida. Bu qorabosurning o'zi qisir! Agar akam boshqaga uylanganda allaqachon bir to'da bolali bo'lib ketardi.

Amma odatda o'z nutqida buyruq ohangi va ritorik gaplardan foydalanadi. Uning qat'iy so'zlari va o'jar xakteri sabab oiladagi erkak a'zolar ham unga miq eta olmaydi. Shu o'rinda ushbu personaj va Oyto'ldi timsoli o'rtasidagi tafovut yaqqol seziladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat faqat bir turdagi insonlardan iborat emas, aksincha, mana shunday turfa insonlar birlashsagina bir millat paydo bo'ladi.

Asar muqaddimasida Oyto'ldining ammaga nisbatan ehtiromi namoyish etiladi:

"Enam ammamni ko'rsa, o'zini qo'yarga joy topolmay, kalavasini yo'qotib qo'yar, ... Ammam kira solib tagiga qalin, toza ko'rpacha tashlashini namoyishkorona kutib turar..."

Mehmonga nisbatan hurmat, ehtirom o'zbekona mehmondo'stlik timsolidir. Ushbu parchada ham buni ko'rish mumkin, biroq ammaning bunga munosabati kutilganidek ijobiy emas. Zero, Oyto'ldi uni ko'rishi bilan "kalavasini yo'qotib qo'yadi", unga xuddi qaynonalardek munosabat qiladi. Xonadonda qaynona yo'qligini ham hisobga olsak, hamma ehtirom ammaga ko'rsatilishi tabiiy holatdek go'yo. Tutingan onasining ammasiga bo'lgan bunday munosabati esa bolaga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, chunki bolalarning ijtimoiylashuvi, boshqalar bilan munosabatga kirishishi ularning oilaviy holatiga, muhitiga bevosita aloqador bo'ladi:

"Enamning ammamdan yurak hovuchlashlari mening ham bola xayolimga o'tirib qolgandi: uzoq yillar ammamdan hamisha cho'chib, qo'rqib, qorasini ko'rsam, qochib qolib, toki ammam ketmaguncha uydan chiqmay yurganman".

Aslida amma jiyani juda yaxshi ko'radi, yer-u ko'kka ishonmaydi, hattoki u shaharda bo'lganida uni ortiqcha bezovta qilishni hammaga ta'qiqlaydi. "Duxtur odamning vaqti yo'qligini" bot-bot eslatadi u. Shu o'rinda, xalqimiz doktor, o'qituvchi kabi insonlarga manfaatli kasblarni o'zgacha ehtirom qilishi, va ularning obro'si jamiyat orasida yuksakligi ham namoyon etilgan. Garchi amma jiyaniga hech qachon qo'pol munosabatda bo'lmasa-da, Oyto'ldining holatini guvohi bo'lgan bola shunga monand harakat qiladi. Aslida bola aqli bu holatni boshida anglamaydi, keyinroq ulg'aygach esa barcha voqealarni teran tahlil eta boshlaydi.

Asardagi ayol obrazlar misolida yana shuni kuzatish mumkinki, ular tabiatan muhokama qilishni, bilganlarini barcha bilan bo'lishishni sevishadi, ayniqsa bu kimnidir hayoti bilan bog'liq jarayon bo'lsa. Albatta, Oyto'ldining oilasi bu vaziyatdan mustasno emas.

"Ammamning tili tobora yechilib borar, endi bu tug' qo'shni qishloqlarda, bizni, amakimni, dadamni bilgan barcha joyda hilpirardi."

Amma o'z hissiyotlarini yashira olmaydi, nafaqat oila a'zolariga, balki butun boshli qishloqqa, va hatto shahardagi qarindoshlariga ham bu haqida aytadi. Oiladagi muammo bunday gap-so'zlar ta'sirida butun jamiyatning muammosiga aylanib ketadi go'yo:

"... butun qishloq yangamdan farzand kutib, toqati toq bo'lgan..."

Xulosa va takliflar. Nazar Eshonqul teran fikrlashi, keng qamrovli tafakkuri, voqelikka o'ziga xos uslub bilan yondashib, turli stilistik vositalarni mahorat ila qo'llashi bilan ko'pchilik zamondoshlaridan farqlanib turadi. U murakkab tasvir vositalaridan unumli foydalanadi, ammo bu asarlarining xalqchilligiga ta'sir etmaydi. Yozuvchi balandparvoz so'zlardan ko'ra o'z millatimizga xos o'zbekona iboralarni yuqori iste'dod bilan asarlarida qo'llaydi. Shu o'rinda uning g'arb an'analariga ko'r-ko'rona ergashmasligi, balki uning har bir asari tafakkur ipiga tizilgan marvariddek mohirlik bilan yaratilganining isbotidir.

Ayniqsa, uning yuqorida tahlil etilgan hikoyasi madaniyatimiz ko'rsatilgan ko'zgukey tuyuladi. Qahramonlar sodda, oddiy, o'z kundalik muammolari bilan band. Ularning nutqida, xatti-harakatlarida ijtimoiy ong ta'siri seziladi. Asarda an'analarimiz ayollar misolida yorqin bo'yoqlar bilan tasvirlanadi. Soddadil, mehribon Oyto'ldi haqiqiy milliylikka burkangan ayol obrazidir, u jabr-sitamlanga bardoshli, oilasi obro'sini o'zidan-da ustun qo'yadigan soddadil va samimiy personaj. Asardagi Oyto'ldi va amma o'rtasidagi munosabat orqali oilaviy mojarolar, natijada esa butun ijtimoiy hayot yoritilgan.

ADABIYOTLAR

1. Davronova Sh. Yozuvchining ijodiy individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. – № 6.
2. Eshonqul N. Bepoyon osmon (hikoya). Ziyouz.com. 2014.
3. Eshonqul N. Falsafa va madaniyat. Xurshid Davron kutubxonasi:2015.
4. Karimboyeva.Sh.K. Line of spirit: about Nazar Eshonqul’s stories who is prominent representative of modern uzbek literature. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: 2020. – № 7
5. Murodov G‘.N., O‘rayeva.D.S. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Durdona:2023. – 214 b.
6. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Orunbayeva N. Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy ifoda va obrazlar talqini. N.:2012. – 77 b.
8. Qo‘ziyev U. Lingvomadaniyatshunoslik. – N.:2021. – 120 b.
9. Rafiqova M.A. Sotsiologiyaning jamiyatdagi roli va ahamiyati. nazariy va amaliy tahlil. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi.2025. – 157-159 b.
10. To‘laganova. S. XXI asr romanini Nazar Eshonqul yozsa kerak – adabiyotshunos. Oyina.uz. 2022.
11. Zayniddinova M.B. Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy ramzning o‘rni. T.:2026. – 8 b.
12. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М., 1985.
13. Омурзакова М. Понятие «лингвокультурологический анализ» в языкознании // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана, №12, 2017. – С.182-184.